

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjaeva
30- iyun 2025-yil

**JAHON ADABIYOTI
FAN DASTURI
2-kurs**

Bilim sohasi:	100 000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110 000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60110700 – O‘zbek tili va adabiyoti

QO‘QON- 2025

Fan/modul kodi JA1304		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 3	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Jahon adabiyoti		60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad:Hozirgi globallashuv davrida inson ma’naviyatining shakllanishida jahon adabiyotining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Jahon madaniyati va tarixining uzviy qismi hisoblangan badiiy adabiyot namunalarini o‘rganish yoshlarda badiiy estetik didning shakllanishiga, ular dunyoqarashining keng qamrovli bo‘lishiga, shuningdek, milliy adabiyotimizning ravnaqiga benazir hissa bo‘lib qo‘shiladi. Jahon adabiyotshunosligida muayyan bir davr adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan , o‘zining yuksak ijodiy uslubiga ega bo‘lishi barobarida millatlar adabiyoti rivojiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan, o‘z maktabiga ega bo‘lgan yirik ijodkorlarning hayot yo‘li va adabiy faoliyatini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. “Jahon adabiyoti” fani asosiy ixtisoslik fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan dasturi “Falsafa”, ”Folklorshunoslik”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”,”Badiiy asar tahlili” kabi fanlar bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, ushbu fanlarda aks etgan ayrim adabiy-nazariy masalalarni qamrab olishi jihatidan uyg‘unlik kasb etadi.Jahon adabiyotining tarixiy taraqqiyotini, sodir bo‘lgan va bo‘layotgan adabiy jarayonlarni, jahon adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodini o‘rganish. Fanning asosiy vazifalari: – talabalarda jahon adabiyotining antik davridan to bugungi kunga qadar bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari va tamoyillari haqida tasavvur hosil qilish; -Jahon adabiyotining badiiy mukammal namunalari bilan tanishtirish, ularning janr xususiyatlari va badiiyati, yozuvchining uslubini tadqiq etish ko‘nikmasini shakllantirish. – talabalarda jahon adabiyotining antik davridan to bugungi kunga qadar bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari va tamoyillari haqida tasavvur hosil qilish;				

Fanning asosiy manbalari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 19-iyuldagi PQ-5188-son "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori va farmonlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar manba vazifasini bajaradi.

Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:

"Jahon adabiyoti" fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan **Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universitetining** Filologiya fakulteti "Chet el adabiyoti" kafedrasidan 45.03.01 "Filologiya" ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallab ishlab chiqilgan "Chet el adabiyoti tarixi" (**ИСТОРИЯ ЗАРУБЕЖНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**) fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan.

Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:

Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi. Mahalliy va xorijiy adabiyotlar tarixining asosiy bosqichlari va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimlarini namoyish eta olish; adabiy matnlarni nazariy adabiy-tarixiy adabiy kategorik tahlil asosida o'rganish bilan birga badiiy asarlarni jahon adabiyoti va adabiy jarayonning umumiy rivojlanishi kontekstida qiyosiy tahlil qilish amaliyotiga ham katta ahamiyat qaratilgan.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro huquqiy me'yorlar, ta'lim berish va baholash prinsiplari asosida boyitilgan.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar jahon adabiyotining nodir namunalarini (badiiy asarlarni) mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda tahliliy-tanqidiy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

II. Asosiy nazariy qism. (Ma'ruza mashg'ulotlari)

II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

3-semestr

1-mavzu. Kirish. Qadimgi Sharq adabiyoti.

Adabiyotning paydo bo'lishi. Yozuv – Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining belgilaridan biri sifatida. Mifologik tafakkur. Sharq xalqlari adabiyotining jahon adabiyotiga ta'siri masalasi. Shumer va Vavilon adabiyoti. “Gilgamish” haqida rivoyat. Qadimgi fors adabiyoti. “Avesto”. Qadimgi Hind adabiyoti. Vedalar. “Maxabxarat”, “Ramayana” eposlari.

2-mavzu. Antik davr Yunon adabiyoti.

“Antik adabiyot” tushunchasi. Yunon mifologiyasi. Homer masalasi.

Gesiod ijodi. “Mehnat va kunlar” asari. Masal. Ezop ijodi. Qadimgi yunon tragediyasi. Esxil, Sofokl. Yevripid. Qadimgi yunon komediyasi. Aristofan.

3- mavzu. Rim adabiyoti.

Qadimgi Rim adabiyoti. Komediya janri rivoji. Plavt ijodi. Rim adabiyotining “Oltin asri”. She'riyat. Katull, Lukretsiy, Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy. Nasr. Yuliy Sezar. Sitseron.

4-mavzu. G'arb Uyg'onish davri adabiyoti

Italiya Uyg'onish adabiyoti

Ilk uyg'onish davri. Dante Alig'eri ijodi. «Ilohiy komediya». Sonet janri Petrarka ijodi. Jovanni Bokachcho ijodi. “Dekameron” asarida Sharq motivlari.

5-mavzu. Fransiya va Ispaniya Uyg'onish adabiyoti

Fransuz Uyg'onish adabiyoti o'z rivojlanishida Italiyaga xos xususiyatlarga ega bo'lish bilan birgalikda, farqli tomonlari ham mavjud edi. Fransua Rable (1494–1553). “Gargantua va Pantagryuel” asari.

Ispaniyadagi ijtimoiy-siyosiy muhit va adabiy jarayon. Ispan Uyg'onish adabiyoti. Servantes (1547–1616y.) ijodi.

6-mavzu. Angliya Uyg'onish davri adabiyoti.

XV-XVI asrlar Angliyadagi tarixiy vaziyat. XVII asr Angliya adabiyoti.

Shekspir ijodi–Angliya uyg'onish adabiyotining cho'qqisi. Adabiyotshunoslikda Shekspir masalasi. Shekspir-dramaturg.

7-mavzu.Klassitsizm davri adabiyoti (XVII asr)

Jahon adabiyotida metodlar va adabiy oqimlarning paydo bo'lishi. Barokko adabiyotida inson va olam konsepsiyasi. Klassitsizm. Nikola Bualo va uning "Poetik san'at" asari. Janrlar nazariyasi. Uch birlik qonuni. Kalderon ijodi. Diniy-falsafiy drama.Fransiyadagi ijtimoiy-siyosiy muhit va adabiy jarayon.Jan Batist Poklen Mol'er komediyalari."Tartyuf" komediyasi. Angliyaadagi ijtimoiy-siyosiy muhit va adabiy jarayon. Jon Milton she'riyati.

8-mavzu. Ma'rifatchilik davri adabiyoti (XVIII asr)

"Ma'rifatchilik" tushunchasi. Ma'rifatchilik adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.. Angliya - ma'rifatchilik adabiyoti beshigi. Daniel Defo – yangi davr yevropa romani asoschisi. "Robinzon Kruzo" – yangi roman shakli namunasi. Jonatan Svift ijodi. "Gulliverning sayohatlari" – romanida ma'rifatchilik utopiyasi. Fransuz inqilobi arafasida mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy muhit va adabiy jarayon. Ma'rifatchilik realizmi. Sentimentalizm. Nemis ma'rifatchiligining o'ziga xos xususiyatlari. Shiller ijodi. Gyote she'riyati. "Faust" tragediyasi.

9-mavzu.Romantizm adabiyoti. (XIX asr)

Romantizm tushunchasining genezisi. Romantizm estetikasi. Romantizm adabiy yo'nalishi. Romantizmning taraqqiyot bosqichlari. Fridrix Shlegel – romantizm nazariyasining asoschisi. Nemis romantizmining o'ziga xos xususiyatlari. Genrix Geyne she'riyati.Yakob va Vilgelm Grimm ertaklari.

Ingiliz romantizmining taraqqiyot bosqichlari. Valter Skott- tarixiy roman asoschisi. Skott ijodida folklor motivlari. Jorj Noel Gordon Bayron she'riyati. "Don Juan" – "she'riy roman" namunasi.

Fransuz romantizmining o'ziga xos xususiyatlari. Viktor Gyugo – fransuz romantizmining dohiysi.

Amerika adabiyotida romantizm. Jeyms Fenimor Kuper ijodi.

10-mavzu. Jahon adabiyotida realizm va tanqidiy realizm tamoyillari.

Realizm tushunchasi. Realizm estetikasi. Stendal ijodi. "Qizil va qora" romani. Onore de Balzakning hayoti va ijodi. "Sag'ri teri tilsimi" romani. "Insoniyat kimediyasi".Prosper Merime ijodiyoti. Gyustav Flober tanqidiy

realizmi. “Bovari xonim” romani. Charlz Dikkens ijodida ingliz jamiyati, xalqi mentaliteti, ijtimoiy ziddiyatlarning haqqoniy tasviri.

11-mavzu. Realizm yo‘nalishlari

Ijtimoiy-psixologik yo‘nalishdagi realizm: Gi de Mopassan, Teodor Drayzer, Ernest Xeminguey.

Ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishdag irealizm: Anatol Frans, Xenrik Ibsen, Jorj Bernard Shou.

Hajviy-yumoristik yo‘nalishdagi realizm: Mark Tven, O.Genri.

Qahramonlik yo‘nalishidagi realizm: Romen Rollan, Jek London.

12-mavzu. XX asr jahon adabiyoti

Jahon adabiyotidagi ijodiy metod va adabiy yo‘nalishlar

Modernizm tushunchasi: F.Kafka ijodi.

Ekzistensializm : Kamyu ijodi.Ekzyuperi

Intelektual-falsafiy nasr: T.Mann.

Postmodernizm: Umberto Eko.

13-mavzu: : XX asr AQSH va Lotim Amerikasi adabiyoti.

XX asr Amerika adabiyoti vakillari. Lotin Amerikasi adabiyoti vakillari. Jahon adabiyotining zamonaviy muammolari.

14-mavzu. XX asr jahon adabiyoti. “Ommabop adabiyot”

Detektiv janr. Triller. Fantastika. Sharq va G’arb madaniyati sintezi. Yapon, xitoy, kores adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida.

15-mavzu: Adabiyot sohasida Nobel mukofotini olgan adiblar.

Nobel mukofoti haqida ma’lumot. Adabiyot sohasida Nobel mukofotini olgan adiblar. Yuksak mukofotga sazovor bo’lgan adiblarning ma’ruzalari. Nobel mukofotini olgan asarlar tahlili.

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulot talabalarni adabiy tanqidga doir ma’umotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni adabiy tanqidga oid adabiyotlarni nazariy jihatdan tahlil va talqin qilishga yo‘naltiradi. Talabalar to'plagan bilimlarini dars vaqtida munozara yoki ma’ruza ko'rinishida himoya qiladi.

Seminar mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qadimgi Sharq adabiyoti.
2. Antik davr yunon adabiyoti
3. Yunon dramaturgiyasi. Tragediya janri. Esxil, Sofokl, Yevripid
4. Rim adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.
5. Shekspir hayoti va adabiy faoliyati.
6. Moler ijodi.
7. Ma'rifachilik adabiyotining ijtimoiy-falsafiy asoslari. Daniel Defo ijodi.
8. Jonatan Svift ijodi.
9. Gyote va uning "Faust" asarida shaxs fojiasi talqini.
10. Romantizm adabiyotining ijtimoiy va nazariy asoslari, asosiy xususiyatlari.
11. Adabiyotda realizm tushunchasi: tanqidiy realizm. Frederik Stendal ijodi.
Onore de Balzak ijodi.
12. XIX asr oxiri va XX asr jahon adabiyoti.
13. Modernizm yo'nalishi namoyandalari ijodi.
14. XX asr AQSH va Lotin Amerikasi adabiyoti.
15. Nobel mukofotini olgan adiblar haqida.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

"Jahon adabiyoti " fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy masalalami yechishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shiincha adabiyotlarni o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashg'ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik; darslik va o'quv qo'llamalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish; tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza

qismini o'zlashtirish; maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish; faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari; masofaviy ta'lim.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Jahon adabiyotshunosligida Gomer masalasi

Najmiddin Komilovning "Tafakkur karvonlari" asari haqida mulohazalar.

Fozila Sulaymonovaning "Sharq va G'arb" asari haqida mulohazalar

Vilyam Shekspir ijodi bo'yicha bahslar

Gyote va Hofiz

Dante ijodiga Sharqning ta'siri

Fridrix Shiller ijodi

J.Swift."Gulliverning sayohatlari" asari yuzasidan taqdimot tayyorlash.

D.Defo."Robinson Kruzoning sarguzashtlari" romanining bugungi kun o'quvchisi uchun qimmat

Teodor Drayzer ijodi.

Jek London hikoyalari

Mopassan novellalari.

Balzak ijodi

A.S.Ekzyuperi ijodi

"Men sevgan asar" mavzusida esse yozish.

"Ertaklar olamiga sayohat" Andersen ertaklari asosida

Mopassan hikoyalari davr ziddiyatlarining yoritilishi.

Mark Tven."Shahzoda va gado" asari

Balzak."Gobsek" qissasi.

Jek London."Shimol hikoyalari" turkumiga kirgan hikoyalar.

"Jahon adiblari adabiyot haqida" kitobi

"Jahon she'riyati bo'stoni"

Nobel mukofotini olgan adiblar hayoti va ijodini yoritib beruvchi

"Jahon adabiyoti" jurnali materiallari bo'yicha

"Men sevgan adib" ."Meni o'zgartirgan kitob"

A.S.Pushkin ertaklari

Chexov hikoyalari

Tolstoy ilmiy maqolalari

Chingiz Aytmatov romanlari

	Abay nasihatlar.
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak: jahon xalqlari adabiyotining manbaviy asoslari haqida bilimga; - jahon adabiyoti taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy siyosiy voqealar va ularning insoniyat badiiy tafakkuri tadrijiga ta'siri masalasini o'rganish ko'nikmasiga; - jahon adabiyotida sodir bo'lgan jarayonlar, ijodiy metod va usullarning o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish; - G'arb va sharq adabiy aloqalarining qadimiy ildizlari, rivojlanish qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish; - jahon adabiyoti namunalarini badiiy tahlil eta bilish, ularda ko'tarilgan g'oyalarni va ilgari surilgan fikrlarni to'g'ri baholay olish; - globallashuv jarayoni va yuksak texnologiyalar asrida jahon adabiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ularning millat adabiyotiga ta'siri haqida o'zining tahliliy, tanqidiy mulohazalarini bayon eta bilish malakasiga ega bo'lishi lozim.
	VII. Mavzu yuzasidan savollar: 1. Modernizm nima? Uning mazmun-mohiyati haqida so'zlab bering. 2. Modernizm nima uchun an'anaviy adabiyot prinsiplarini inkor qildi? 3. Modernizm yo'nalishlari to'g'risida tushuncha bering. 4. Xorijiy va o'zbek olimlarining modernizm haqidagi qarashlariga munosabatingiz. 5. Jahon va o'zbek adabiyotidagi ayrim modernistik asarlar haqida so'zlab bering. 6. «Antiroman», «antidrama» atamaları mohiyatini tushuntirib bering .
4.	VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. ijodiy ishlar yaratish
5.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar;

	• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
6.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirishi, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettiraolishi, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritishi vajoriy, oraliq, yakuniy nazorat shakllarida va mustaqil ta'lim uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi kerak.
7.	Asosiy adabiyotlar: 1. Hamdaniyov U., Qosimov A. Jahon adabivoti. - Toshkent, "Barkamol fayz media", 2017. 2. F.Boynazarov. Jahon adabiyoti. – T.: Musiqa, 2006. 3. Normatova Sh. Jahon adabiyoti. – T.: Cho'lon, 2008. 4. Луков Вл. А. История литературы (Зарубежная литература от истоков до наших дней). – Москва: Академия. 2018. 5. Qosimov A., Xo'jayev S. Jahon adabiyoti. – Fargona: Farg'ona nashriyoti, 2016. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. "Jahon adiblari adabiyot haqida". Ozod Sharafiddinov tarjimalari. Toshkent."Ma'naviyat", 2010. 2. Mahmudov M. Hayrat va tafakkur. - Toshkent, 1990. 3. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik terminlar lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. 4. Boboev H., Hamroev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. - Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2001 5. Jabborov E. Jahon adabiyoti janr va oqimlarining o'ziga xos xususiyatlari. – Toshkent, "Mumtoz so'z", 2016 6. Komilov N. Tafakkur karvonlari. - Toshkent, 2011 7. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – Toshkent, 1997 8. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji.Toshkent,"Yangi asr avlodi",2002 9. Eshonqul N. "Mendan mengacha" Toshkent."Akademnashr" 2014 10.Do'stmuhammedov Q. Nobel mukofotini olgan adiblar. Toshkent."Ma'naviyat" 2002.

	Axborot manbaalari http://natlib.uz –Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi http://ensiklopediya.uz – O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti http://ziyouz.uz – O‘zbek va jahon adabiyoti portal http://ziyonet.uz –O‘zbekiston milliy ta’lim portali http://kitob.uz/ - Respublika bolalar kutubxonasi http://www.infolib.uz – Respublika Axborot kutubxona markazi http://www.nbmgu.ru. - Электронный каталог Научной библиотеки МГУ http://www.nbmgu.ru/catalogs/elcats/full/. Электронная библиотека МГУ
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari: Qurbonova Feruza A’zamovna - Qo‘qon DU katta o‘qituvchi. Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD).
9.	Taqrizchi: Abdurahmonova B.M - Qo‘qon DU.dotsent. Pedagogika fanlari nomzodi. Xolmatova N. Y. - Qo‘qon DU katta o‘qituvchi. Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD).

